

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH



N.U. Bikbayeva, Z.I.Ibrohimova, X.I.Qosimova

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA
MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

**O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi O`rta va oliy pedagogika o`quv
yurtlari uchun o`quv qo`llanma sifatida tasdiqlangan.**

Toshkent “O`qituvchi” 1995

Ushbu o`quv qo`llanma “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni tarkib toptirish” kursi dasturining asosiy nazariy va uslubiy masalalarini qamrab olgan bo`lib, bolalar bog`chalari tarbiyalanuvchilariga miqdor va sanoq, kattalik, geometrik figuralar, fazo va vaqt kabi tushunchalarni o`rgatishga oid ishlarni rejalashtirish, tashkil va o`tkazishga oid tavsiyalar berilgan.

Pedagogika institutlari va o`rta o`quv yurtlari, maktabcha ta`lim yo`nalishlari va sirtqi bo`lim talabalari uchun mo`ljallangan.

O`quv qo`llanma Maktabgacha ta`lim kafedrası katta o`qituvchisi G.U.Umarova tomonidan lotin yozuviga o`girildi.

26.11.2019 yil

I BOB. BOLALAR BOG`CHASIDA MATEMATIKA O`QITISHNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati tarbiyachi ixtisosiga, uning kasbga oid mahoratiga bog`liq.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari ishni to`g`ri rejalashtirish va tashkil qilishsiz hal bo`lmaydi.

Bu bo`limda quyidagi masalalar ochib beriladi:

- bolalar bog`chasining har xil yosh guruhlarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish;
- kam komplektli bolalar bog`chasida mashg`ulotlarni tashkil qilish va rejalashtirish;
- matematika mashg`ulotlaridan qilinadigan didaktik talablar;
- elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish usullari;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda oila bilan ishlashni tashkil etish.

Qo`llanma bu bo`limining asosiy maqsadi – bolalar bog`chasida ish tashkil etish va rejalashtirish, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga matematika o`qitishning asosiy tashkiliy masalalari bilan tanishtirishdan iborat.

Talaba bu bo`lim materialidan foydalanib, laboratoriya va nazorat ishlarini bajarishi, mazkur masala bo`yicha sinov va imtihonlarga tayyorlanishi mumkin.

1-§. Ikkinchi kichik guruh.

Ikkinchi kichik guruhda bolalarga sonlargacha bo`lgan davr o`rgatiladi. Bunda ularga miqdoriy munosabatlar tushuntiriladi. Bolalarga turli buyumlar to`plami bilan ishlash, ya`ni ularning har xil belgi alomatlariga ko`ra birlashtirish, tenglik va tengsizlikni taqqoslash natijalarni ko`p, kam, teng so`zlari bilan belgilashni o`rgatish ko`zda tutiladi.

Bolalar buyumlarning uzunliklari, kengliklari, balandliklarini taqqoslashga o`rgatiladi; geometrik figuralar – doira, kvadrat bilan tanishtiriladi; fazoviy yo`nalishlar bilan tanishtiriladi: “ o`zidan” oldinga, orqaga (orqasidan), o`ngga(o`ngdan), chapga (chapdan), vaqt bo`yicha orientr(mo`ljil) olishga ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi so`zlarini to`g`ri qo`llashga o`rgatiladi.

Mashg`ulotlar o`quv yili boshidan boshlab haftasiga bir martadan(1 yilda 36 marta) o`tkaziladi. Sentabr oyida bir mashg`ulotning davomiyligi 10 minutdan oshmasligi kerak. Oktabr oyidan boshlab mashg`ulot davomiyligi sekin – asta 15 minutga yetkaziladi.

Ikkinchi kichik guruhda elementar matematik tasavvurlarga bag`ishlangan mashg`ulotlarda o`qitish ayoniy ta`sir xarakterida bo`lishi kerak. Bolalar bilimlarini tarbiyachining harakatlari, uning tushuntirish va ko`rsatmalarini idrok qilish asosida, shuningdek, didaktik materiallar bilan mustaqil ishlash vositasida o`zlashtiradilar.

O`yin shaklida berilgan o`quv materiallarini kichik bolalar yaxshi o`zlashtiradilar. Shu sababli mazkur guruhda yaxshisi mashg`ulotlarni didaktik o`yinlar shaklida yoki aqalli ularni kutilmagan sovg`alar (buyumlar, o`yinchoqlar va boshqa narsalarning kutilmaganda paydo bo`lishi) dan boshlash durust bo`ladi. Shuningdek, har xil faol harakatli o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O`qitish – o`rgatishni bunday o`yinlarni iloji boricha hamma bola ishtirok etadigan qilib tashkil qilish kerak.

Elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda bolaning didaktik material bilan ishlashi, ishlarini ma`lum tartibda bajara olishi (buyumlarni rasmlarga, kartochka namunalariga joylashtirish) katta ahamiyatga ega. Sanoqqa oid didaktik materiallarni kichikintoyga alohida qutilar (konfetlar, patnislar) da berish kerak.

O`qituvchi bolalarga operatsiyalar ketma-ketligini mukammal tushuntirib, har bir ish usulining namunasini ko`rsatadi. Tushuntirish ishlari kichkina bola idrok qila oladigan sur`atda aniq, qisqa berilishi kerak. Har qaysi ish usulini, yangilikni alohida ajratib, 2-3 martadan ko`rsatish kerak. Bir xil harakat usullarini har xil vaziyatlarda va har xil ko`rsatma materiallar bilan ko`p martalab aytib ko`rsatish, ularni bolalar yaxshi o`zlashtirishlari uchun imkon beradi.

Matematik bilimlar bolalarga, ular nimani bilib olganliklari va nimani uddasidan chiqa olishlarini hisobga olgan holda, aniq sistema va ketma-ketlikda beriladi.

2-§. O`rta guruh.

O`rta guruhda mashg`ulotlar sentabr oyidan boshlab haftasiga bir marta o`tkaziladi. Mashg`ulot 20 daqiqa davom etadi. Yil davomida 36 ta mashg`ulot o`tkaziladi.

Bolalar harakatli-ko`rsatmali shaklda berilgan o`quv materiallarini yaxshi o`zlashtiradi. 5 yoshga qadam qo`ygan bolalarni o`qitishda didaktik o`yinlardan keng foydalanish kerak. Topshiriqlarni bajarish davomida o`qituvchi bolalarni o`z harakatlarini (nima qilganliklarini va nima qanday qilganliklarini, natijada nima hosil bo`lganini) tushuntirib berishga undaydi.

Birinchi mashg`ulotlardan boshlab bolalarga mos muammo xarakteridagi masalan, mashina qaysi darvozadan o`tdi (o`tmadi)? Nega? Kimning uyi (stoli, kravati) baland (past) ? Nega? Ayiqlarga kursilar, olmaxonlarga yong`oqlar, bolalarga bayroqchalar yetadimi? kabi masalalarni berish kerak.

O`qitishda bolalarning emotsional kayfiyati, qiziqtirilganliklari katta ahamiyatga ega. Shu sababli mashg`ulotlarda ko`rgazmali qo`llanmalardan, turli didaktik materiallardan foydalanish kerak.